

TIBBIYOT XODIMLARINING IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINING PSIXOLOGIK ASOSLARINI TUSHUNISH, ULARNING FAROVONLIGI VA SAMARADORLIGI

OXU magistranti

Salimova Vazira Erkin qizi

Ilmiy rahbar

Avezov Olmos Ravshanovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi bilan bog'liq emperik natijalar va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik, mimika, ekspert baholash.*

Аннотация: *В статье изложены эмпирические результаты, связанные с проявлением и развитием факторов социально-психологической компетентности медицинских работников и их научный анализ.*

Ключевые слова: *социально-психологическая компетентность, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, мимика, экспертная оценка.*

Abstract: *This article presents the empirical results and their scientific analysis related to the manifestation and development of factors of socio-psychological competence of medical staff.*

Key words: *socio-psychological competence, communicative competence, professional competence, facial expressions, expert assessment.*

KIRISH

Dunyoda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxasislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayni paytda tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. "Sog'liqni saqlash tizimlari salomatlik va farovonlik uchun" Tallin Xartiyasi va boshqa muhim xalqaro hujjatlarda aholining tibbiyot va psixologiya fanlari yutuqlaridan foydalanishi zarurligi bilan bir qatorda tibbiyot xodimlarining professional kompetentligi masalasiga ham alohida urg'u beriladi. Bu borada butun dunyoda o'ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tibbiyot xodimlari faoliyatiga qo'yiladigan talablar, ularning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini psixologik jihatdan takomillashtirish masalalari dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tibbiyot xodimlari professional kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan

iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tibbiyot xodimlarining psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiypsixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, tibbiyot xodimlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "Aholiga tibbiy va ijtimoiytibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi va sifatini oshirish, ...sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ... sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish", ustuvor vazifa sifatida qaralishi e'tiborga molik. Bu borada tibbiyot xodimlarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

ASOSIY QISM

Mavzuni nazariy-metodologik asoslarini aniqlash borasidagi tahlilda, avvalo, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ismoil Jurjoni, Masixiy Al Karvakiy, Chag'miniy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'z asarlarida shaxsning insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini "yuqori darajadagi axloqiy sifatlar" deb ta'riflaganlar. Shuningdek, ushbu bobda tibbiyot xodimlari sotsialpsixologik kompetentligi, uning kommunikativ kompetentlik, emotsional intellekt va shaxs tiplari kabi omillari bilan bog'liqligi, strukturasi, unga nisbatan olimlarning ilmiy yondashuvlari, sotsial-psixologik kompetentlikka bergan tavsiflari bo'yicha olib borgan izlanishlari va ularning xulosalari berilgan.

Amerikalik tadqiqotchilar L.Stross va J.Morenolar sotsial-psixologik kompetentlikni "shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo'ladigan qobiliyatlar majmui" deb tavsiflaydilar. Sotsial-psixologik kompetentlikning shakllanish shart-sharoitlari va uni kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari N.A.Kuzmina, L.A.Petrovskaya, A.A.Bodalev, L.M.Mitina, O.V.Sovronova tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Bir qator olimlar sotsial psixologik kompetentlikni kasbiy bilimdonlik bilan bog'lab tushuntirishga intiladilar. A.K.Markova, L.M.Mitina, Ye.Mileryan, I.I.Ridanova, R.A.Uayt, L.P.Panina va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida professional kompetentlikning mohiyatini ochib berganlar. Ye.Pryamikov, A.Bodalev, S.Makarov, S.Nikitina, V.Svetkova, I.Zimnyaya, V.Kunisyna, G.Beliskaya, V.Maslennikov, L.Shabatura, L.Svirskaya, I.Zarubinskaya, Ye.Kobolyanskaya kabi rus olimlari sotsial-psixologik kompetentlik fenomenining psixologik xususiyatlarini o'rganganlar. Ushbu muammoning tarkibiy qismlari va omillarini M.Kenel va M.Sveyn, S.Savinon, L.Baxman, A.Palmer, R.Klifford, Yan Van Ek kabi xorij olimlari tadqiq qilganlar. I.Dementeva, N.Zubareva kabi olimlar sotsialpsixologik kompetentlikni "sotsial donishmandlik" deb ta'riflaydilar.

Rus olimlarining sog‘liqni saqlash sohasida tibbiyot xodimlari sotsialpsixologik kompetentligining o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlariga e‘tibor qaratsak, L.G.Matveeva tibbiyot xodimlari har tomonloma yetuk bo‘lishi uchun belgilangan supervayzerlik trening dasturini o‘zlashtirishi lozimligini uqtirib o‘tadi. Shu jumladan, muallif Rossiyada tibbiyot xodimlari tayyorlashning muammolariga to‘xtalib, sotsial-psixologik kompetentlikni tibbiyot xodimlari uchun muhim bo‘lgan kasbiy komponent I.V.Kunina

1. Verbal kompetentlik.
2. Kommunikativ kompetentlik
3. Sotsialno-professional kompetentlik
4. Ego kompetentlik

G.Beliskaya

1. Motivatsion kompetentlik
2. Kognitiv kompetentlik
3. Xulqiy kompetentlik

Tibbiyot xodimlarida sotsialpsixologik kompetentlik omillarini tadqiq etish tuzilmasi

N.A.Kravsova o‘z ilmiy tadqiqotlarida bemorga yondashishda, avvalo, uning yoshi, xarakter xususiyatlariga alohida e‘tibor berish lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Muallifning fikricha, tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun, birinchi o‘rinda, ularning psixologik-tibbiy tuzilmasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. V.V.Guldan fikricha, poliklinikalarda tibbiy-psixologik kabinetlar va tibbiyot xodimlari uchun o‘quvlar tashkil etilishi yuqori sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishni ta’minlaydi. Olim o‘z tadqiqotlarida sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri ekanligini ta’kidlab, kundalik amaliyotda tibbiyot va psixologiyaning o‘zaro ta’siri masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Zamonaviy tibbiyot psixologiyasida kasalliklarga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, tibbiyot xodimlari shaxsiy sifatlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari Z.R.Ibodullaev, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan, Z.Abidova, G.Q.Tulaganova, Yu.K.Narmetova-larning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Tibbiyot fanlari doktori, professor Z.R.Ibodullaev zamonaviy sivilizatsiyaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi, jamiyatda inson shaxsi rolining ortib borishi kuzatilayotgan bir paytda sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan tibbiyot xodimlarini tayyorlash masalasi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb masala ekanligini ta’kidlaydi. Tibbiyot xodimi har qanday bemor shaxsining emotsional holatlarini, yoshga oid psixik rivojlanish xususiyatlarini bilishi va bemor bilan psixologik aloqa o‘rnata olishi, davolash jarayonida turli xil psixologik usullarni qo‘llay bilishi zarurligini uqtiradi.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi bilan bog‘liq ilmiy manbalarning nihoyatda taqchilligini ko‘rsatmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlarida sotsial-psixologik kompetentlik bilan uning omillari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tizimini tahlil qilishni, tibbiyot xodimlari faoliyatida adekvat muloqotmandlik, adekvat emotsional munosabat va kommunikativ kompetentlik kabi komponentlarning yetakchi ichki psixologik mexanizm sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tadqiq qilishni taqozo etadi. Shuni inobatga olib, ushbu bobda tibbiyot xodimlarida sotsial-psixologik

kompetentlik samaradorligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik yondashuvga asoslangan sotsial-psixologik kompetentlikni tadqiq qilish usuli ishlab chiqilgan va shu usul asosida har bir tibbiyot xodimida sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining samaradorligi o'rganilgan, tahlil qilingan hamda tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar bugungi kunda sotsialpsixologik kompetentlik muammosi o'zining nazariy-metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Barcha tahlillar asosida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish faoliyat subyekting ijtimoiy faolligi va tajribalarni to'lashdagi izchil ishtiroki natijasi deb hisoblash mumkin. Ayni paytda, mazkur tadqiqot ishida olingan ma'lumotlar bugungi ijtimoiy psixologiyaning ijtimoiy-psixologik kompetentlik yo'nalishi bo'yicha istiqbolli ilmiy loyihalarni ochib berishda, ijtimoiy-psixologik kompetentlik tushunchasiga ilmiy talqinlar kiritilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan ilmiy mushohadalarni umumlashtirgan holda tibbiyot xodimlari ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanish masalasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish aniq nazariy asoslangan va amaliy rejalashtirilgan dasturga zarurat sezadi. Ijtimoiy-psixologik kompetentlikning rivojlantirish dasturi uchun metodologik asos sifatida xizmat qiluvchi dasturlarga tayanish maqsadga muvofiq.

2. Tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi kasbiy kamolot jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Unda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirishda vaziyatlar va shaxslararo munosabatining ta'siriga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratildi.

3. Tibbiyot xodimlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini kasbiy faoliyatga ro'yobga chiqarish va imkoniyatlardan foydalanishning optimallashtirish bo'yicha olib borilgan psixotrening dasturi belgilangan tartibda amalga oshirildi. Psixotrening dasturida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini o'stirishga bag'ishlangan mashqlar orqali tibbiyot xodimlari o'zlarini turli vaziyatlarda sinab ko'rdilar va natijalarni tahlil qildilar.

4. Ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish trening dasturi tibbiyot xodimlarida tadqiq qilindi va shu asosda muayyan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu dasturni tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. (766)-son.

2. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslari. - Buxoro.: "Durdon", 2020. – 248 b.

3. Guldan V.V., Nazarenko Yu.V. Psixologicheskaya slujba v zdravooxranenii: sostoyanie i perspektivy. 1991. – S.177-179.

4. Kunitsina V.N., Kazarinova N.V., Pogolsha V.M. Mejlichnostnoe obshenie/ Uchebnik dlya VUZov. – SPb.: “Piter”, 2002 – 322 s.

5. Avezov Olmos Ravshanovich O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARINI KELITIRIB CHIQRUVCHI

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY

ISSN(Online): 2984-7958

SJIF Impact Factor |(2023): 5.817|

Volume-7, Issue-1, Published |20-01-2024|

B 96 -104

6. O.R. Avezov. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdoni" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet

7. O.R. Avezov. SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION IN

PERSONS WITH SUBJECTIVE CONTROL

JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY

ISSN(Online): 2984-7958

SJIF Impact Factor |(2023): 5.817|

Volume-7, Issue-1, Published |20-01-2024|

B 26-31

8. O.R. Avezov. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE SOCIALIZATION PROCESS OF

ADOLESCENTS RAISED IN ONE-ONE FAMILIES

JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY

ISSN(Online): 2984-7958

SJIF Impact Factor |(2023): 5.817|

Volume-7, Issue-1, Published |20-01-2024|

B 61-64

9. O.R. Avezov. MODERN PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN

YOUNG PEOPLE

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th July, 2023

ISSN: 2835-5326

B 139-143

10. O.R. Avezov. SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION IN

PERSONS WITH SUBJECTIVE CONTROL

JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY

ISSN(Online): 2984-7958

SJIF Impact Factor |(2023): 5.817|

Volume-7, Issue-1, Published |20-01-2024|

В 26-31